



РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА С КОНКУРЕНТОСПОСОБНЫМИ ПРОДУКТАМИ И УСЛУГАМИ

Narzullaev Nozimjon Sobirjonovich

I.f.n. Dotsent

Namangan davlat universiteti Menejment kafedrası dotsenti

Аннотация. Производство конкурентоспособной продукции и предоставление услуг занимает особое место и значение среди факторов развития туризма. В статье анализируется понятие конкурентоспособности. Изучаются факторы повышения конкурентоспособности и разработаны предложения.

Ключевые слова: экономика, туризм, конкуренция, конкурентоспособность, эффективность, результативность.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida ushbu soha rivojlanib borib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini orttirib bormoqda. Istiqbol uchun katta maqsad va vaziflar belgilangan. Bu vazifalarni bajarish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun sohani yanada rivojlantirish lozim. Turizm sohasini rivojlantirish omillari ichida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatishning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatini oshirish hamda iste'mol xususiyatlarini yaxshilash orqali ularni eksport qilish hajmini orttirishga hamda mamlakatimizda kirib kelishi mumkin bo'lgan turistlar oqimini yanada ortishiga erishish mumkin. Shu bilan birgalikda, mahsulotlardan foydalanishdagi qulaylik, ularga ko'rsatiladigan servis xizmati, ta'mirlashdagi qulayliklar va shu singari imtiyozlar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish hajmini yaxshilashga erishish mumkin.



Viloyatimizdagi korxona va tashkilotlar ham bu yo'nalishda ishlarni tashkil etishlari va amalga oshirishlari talab etiladi. Ayniqsa, hozirgi o'zgarishlar sharoitida, butun jahonda eksport hajmining sezilarli o'zgarishi sharoitida korxonalarimiz o'zlari ishlab chiqarayotgan tayyor mahsulotlarni ko'proq raqobatbardosh bo'lishiga harakat qilishlari zarur. Viloyatimizdagi korxonalar va tadbirkorlik sub'ektlari o'zlarining mahsulotlari sifatini oshirishga va iste'mol xususiyatlarini yaxshilashga tashqi ko'rinishiga, dizayniga va chidamli bo'lib, kam ta'mirlashga munosib bo'lishiga erishishlari lozim. Shundagina, viloyatga kelishi mumkin bo'lgan turistlar oqimi yanada ko'payadi, viloyatimiz iqtisodiyoti yanada rivojlanadi, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi viloyatning ulushi ortadi va aholining turmush darajasi yanada yaxshilanadi.

Ko'proq xajmda foyda olish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlilik darajasi ham yuqori bo'lishi kerak. Raqobatbardoshlilik tushunchasi ham mahsulot sifati ko'rsatkichi bilan chambarchas aloqadadir. Mahsulotlar qanchalik sifatli bo'lsa, ularning raqobatbardoshliliigi ham ortib boradi.

Tadbirkorlik korxonalarining globallashtiruv sharoitida yashab qolishlari va o'zlarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatlarini iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishiga erishish uchun mahsulotlarini raqobatbardoshlilik darajasini o'rttirishga erishishlari zarur.

Tovarning yoki mahsulotning raqobatbardoshliliigi – uning bozorining ushbu mahsulotga belgilaydigan talablariga javob beruvchi qobiliyatidir. Mahsulotning raqobatbardoshliliigi bilan tovarning raqobatbardoshliliigi tushunchalari o'rtasida farq bor. Mahsulotlarning raqobatbardoshliliigi shu mahsulotgagiga qo'yiladigan talablarga javob berish qobiliyatidir. Bunda shu mahsulot bilan bog'liq bo'lmagan xususiyatlar hisobga olinmaydi. Mahsulot bilan bog'liq bo'lmagan omillar hisobga olinmaydi.

Korxona va tashkilotlar mahsulotlarni ishlab chiqarishlarida yuqoridagi xolatlarni hisobga olishlari talab etiladi. Shu bilan birgalikda ular o'zlaridagi faoliyatda sifatni boshqarishni asosiy faoliyat turi darajasiga ko'tarishlari lozim. Sifat



boshqaruvini takomillashtirish orqaligina bozor munosabatlarida raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxona va tashkilotlar raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga va raqobatbardoshli xizmatlar ko'rsatishga asosiy e'tiborni qaratishlari ta'kidlanmoqda. Bunda albatta sog'lom raqobat kurashiga o'tish lozim. Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki davrlarida sog'lom raqobatga o'tish birmuncha mushkul bo'ladi. Sog'lom raqobatga o'tishning qiyinligining sabablari asosan quyidagi muammolardir:

1. Mavjud ishlab chiqarishda samarali texnologiyalarni yetishmasligi.
2. Sohalar va tarmoqlar miqyosidagi raqobatda adolat mezonlarining yetishmasligi va mavjudlarining buzilishi.
3. Mamlakat ichki bozorlariga turli tovar va mahsulotlarni kontrabanda yo'li bilan kirib kelishi.
4. Iqtisodiyot sub'ektlari orasida faoliyatni va daromadlarni yashirishga harakat qilishning mavjudligi.

Raqobardoshlilikni ta'minlash uchun raqobatbardoshlilikga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilish va ularni o'z faoliyatida hisobga olish lozim. Bozor munosabatlari hayotimizga tobora chuqurroq kirib borgani sari raqobat kurashi ham keskinlashib boraveradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakatning raqobatbardoshligini, uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligini va mamlakat iqtisodiyoti sub'ektlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishni talab qiladi. Raqobatbardoshlilik barcha sohalarda bo'lishi kerak. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida, turli mulk shaklidagi korxona va tashkilotlarda, ta'lim, sport, sog'liqni saqlash va boshqa shu kabi sohalarda ham raqobatbardoshlilik bo'lishi kerak. O'zaro musobaqa orqali rivojlanishga yo'l ochiladi. O'zaro musobaqa bo'lmas ekan, raqobat qoidalari buzilar ekan bunday jamiyatda rivojlanish bo'lmaydi. Mamlakatning har bir fuqarosi raqobat muxitini bilishi va unda samarali tarzda ishtirok etishi talab etiladi. Bozor munosabatlari sharoitida raqobat asosiy vosita hisoblanadi. U orqali bozor



munosabatlari harakatga keltiriladi. Raqobat tashqi kuch sifatida maydonga chiqib, korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni oqilona tashkil etishga, binobarin, ishlab chiqarishni kengaytirish va samaradorligini oshirishga, jamg'arishni oshirishga doimo undab turadi.

Tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun avvalambor bunga ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratish lozim. Eng muhim omil – bozor va undagi iqtisodiy munosabatlardir. Shu bilan birgalikda, bozordagi iste'molchilar va ularning talablari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari sharoitida raqobatning mavjudligi tovar ishlab chiqaruvchilarni va xizmat ko'rsatuvchilarni muntazam ravishda haridorlarning talablarini hisobga olishga, ularning talablariga moslashishga, ularning iloji boricha yuqori sifatli tovar va xizmatlar bilan ta'minlashga undaydi. Bunga erishganlar raqobatda g'olib chiqadilar. Ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'zlarining faoliyatlarida bozorni va undagi talab va taklifni muntazam ravishda hisobga olib borishlari talab etiladi. Ular o'zlari tomonlaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish masalalariga uzluksiz tarzda yondoshishlari lozim. Raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha tadbirlar tuzilishi va ularni amalga oshirilishi lozim. Buning uchun esa muntazam ravishda fan-texnika yutuqlarini o'rganib borish va ishlab chiqarishga joriy etib borish lozim. Yuqori unumli va zamonaviy dastgoxlardan foydalanmasdan turib raqobat kurashida qatnashib bo'lmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini vaqtida ishlab chiqarishga joriy etish yuqori saviyadagi mutaxassislarni talab etadi, ushbu ishlarni amalga oshirmaslik esa muqarrar ravishda raqobat kurashini boy berishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Catter III, J.J., Kidwell, R.E. (2014). Function, governance, and trust in successor leadership groups in family firms. *Journal of Family Business Strategy*, 5(3), 217-228. doi: 10.1016/j.jfbs.2013.06.001.



2. Kazakov O.S., Valijanov Sh. Upravlenie kachestvom produkcii v usloviyax ekonomicheskogo krizisa. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya «Innovatsionnyy potentsial molodeji v sovremennom mire», 19-20 aprelya 2023 goda. «Belorusskiy trgovno-ekonomicheskij universitet potrebitelskoy kooperatsii».
3. Kazakov O.S., Valijanov Sh. Raqobat muxitida sifatni yaxshilashni tashkil etish va rag'batlantirish. Yangi O'zbekiston milliy iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etishning ahamiyati. Xalqaro anjuman. Namangan muxandislik texnologiya instituti. 2023 yil 4-5 oktabr.